

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.H.Axmedova

Ingliz nasrida viktoriyan davri ahamiyati 210

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi 213

TILSHUNOSLIK**Sh.A.Aliyeva**

Matn maqomidagi grafema va semantik derivatsiya 216

M.S.Ishanjanova

Lingvokultural kodlarning mazmuniy tizimi 220

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova

Professor A.Mamajonovning o'zbek xalq maqollaridan foydalanish mahorati 224

R.A.Achilova

Ingliz tilidagi allyuziyalarning lingvolturologik tadqiqi 228

M.A.Mo'minova

"Til portfellari" integrativ texnologiyasi (ingliz tili misolida) 231

N.N.RadjabovIngliz va o'zbek tillarida undoshlarning fonetik va grafemik xususiyatlarida izomorfizm
va allomorfizm 235**M.X.Hakimov**

Nutqiy akt va intonatsiya 242

G.A.Musayeva

Oziq-ovqat texnologiyasi darslarida Wiki texnologiyasi asosida yozma nutqni o'qitish 246

U.B.Usmonova

Tilshunoslikda publisistik matn tadqiqiga yangicha qarash 251

Z.S.Tashtemirova, N.M.Izbayeva

Ko'p tillilik tushunchasi haqida 254

F.Sh.Alimov, R.A.Faxriddinova

Raqamlashtirish sharoitida yozma nutqni shakllantirishning lingvistik omillari 259

A.L.Melikuziev

Nolisoniy semiotik sistema va uning elementlari 265

FANIMIZ FIDOYILARI

АКАДЕМИК МАХМУД САЛАХИТДИНОВИЧ САЛАХИТДИНОВ 269

MATN MAQOMIDAGI GRAFEMA VA SEMANTIK DERIVATSIYA**ГРАФЕМА В СТАТУСЕ ТЕКСТА И СЕМАНТИЧЕСКАЯ ДЕРИВАЦИЯ****GRAPHEME IN TEXT STATUS AND SEMANTIC DERIVATION****¹Aliyeva Shaxnoza Aybekovna**

¹Andijon davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Maqolada matn maqomida kela oladigan grafemalar derivatsiyasini aspektida tahlil qilingan. Shuningdek, ularning semantik derivatsiya mahsuli sanalishi, semiotik tabiat, ifodalagan ma'nosi, semantik xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, maqolada birinchi o'rninga grafemalarning kelib chiqish tarixi emas, balki ular insonlar o'tasida aloqa vosita sifatida o'rganilishi, hatto ayrim vaziyatlarda matn maqomida kelishi, demakki matn sifatida ularning derivatsion xususiyatlarini o'rganish qo'yilgan.

Аннотация

В статье анализируются графемы в деривационном аспекте, которые могут функционировать в статусе текста. Также дается информация об их семантической и семиотической природе, выраженных значениях, семантических особенностях. Кроме того, на первом месте в статье стоит не история происхождения графем, а тот факт, что они изучаются как средство общения между людьми, и даже в некоторых ситуациях они приходят в статус текста, а это значит, что они имеют деривационную характеристику текста.

Abstract

The article analyzes graphemes in the derivational aspect, which can function in the status of the text. Information is also given about their semantic and semiotic nature, expressed meaning, semantic features. In addition, the first place in the article is not the history of the origin of graphemes, but the fact that they are studied as a means of communication between people, and even in some situations they come to the status of a text, which means that they have a derivational characteristic of the text.

Kalit so'zlar: semantik derivatsiya, semiotik tabiat, matn, grafema, virtual operand. operator, derivat.

Ключевые слова: семантическая деривация, семиотическая природа, текст, графема, виртуальный операнд. оператор, дериват.

Key words: semantic derivation, semiotic nature, text, grapheme, virtual operand. operator, derivative.

KIRISH

Ma'lumki grafemalarni matn sifatida o'rganilishi hozirgi tilshunoslikda borgan sari dolzarb muammoga aylanmoqda. Ularning semiotik tabiat, ifodalagan ma'nosi, demakki semantik xususiyatlari ham tilshunoslarning diqqatini borgan sari ko'proq o'ziga tortmoqda. Semiotika hali barcha turdag'i belgilarni qamrab oladigan va ularni boshqa bilim sohalaridan ajratib turadigan belgining universal ta'rifini ishlab chiqmagan, garchi fan qadim zamonlardan beri belgilar muammosi bilan shug'ullangan bo'lsa-da. Bundan tashqari, belgining ma'nosi kelishilgan holda inson ongi tomonidan o'rnatilganmi yoki obyektiv haqiqat bilan belgilanadimi, degan to'liq kelishuv ham mavjud emas. Biroq bizni qiziqtirgan narsa grafemalarning kelib chiqish tarixi emas, balki ular insonlar o'tasida aloqa vositasi sifatida o'rganilishi, hatto ayrim vaziyatlarda matn maqomida kelishi, demakki matn sifatida ularning derivatsion xususiyatlarini o'rganishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Grafemalarni hozirda ko'plab tilshunoslarni matn sifatida talqin qilishmoqda. Masalan, N.V.Petrova M» (metro) tarzida qo'llanilgan alohida grafema ham matn maqomida kelishini ta'kidlaydi[1,123].

Sh.Turniyazova esa matnning grafema bilan, so'z, so'z birikmasi va mustaqil gap bilan ifodalanishi hollari muayyan nutq muhiti va ularga yuklatilgan vazifalar bilan bog'liq bo'lishini, ana shu muhit doirasidagina ular matn maqomini olishi mumkinligini, boshqacha aytganda, bunday matnlarning voqelanishi «kontekst» tushunchasi bilan ham uzviy aloqador ekanligini aytib o'tadi[2,22].

Darhaqiqat, grafema har doim ham matn maqomida kelavermaydi. Bu maqomga u matn ifodalaydigan mazmun mohiyatni ifodalagandagina ega bo'lishi mumkin. Matn maqomida keladigan

TILSHUNOSLIK

grafemalar semiotik xarakter kasb etib, nutq vaziyatiga uzviy aloqador bo'ladi. Bunday matn turlariga N.V.Petova ta'kidlab o'tgan avtobus va metro bekatlariagi A hamda M grafemalardan tashqari yo'l belgilarida ifodalangan R (to'xtash), O' (o'rganuvchi), ayrim logotiplarda ifodalangan Y (yoshlar telekanali), N (Xyunday) kabi grafemalarni ham olish mumkin.

Ammo shuni ham aytish lozimki, grafemani matning ma'lum bir turiga taalluqli ekanligini ko'rsatish uchun uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish lozim bo'ladi:

1. Standartlilik. Grafema yozilgan shrift yoki husnixat uning ma'lum makon va zamonga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Masalan, yangi jumlanı bosh harf bilan yozish Yevropada XIV asrda kitob sahifalarini bezash maqsadida paydo bo'lган [3, 135-136]. Hozirda grafemalarni ma'lum bir shrift bilan yozilishi uning aynan nimani ifodayotganligini bildiradi. Masalan, yo'l belgilaridagi grafemalarning shakli oddiy va aniq shrift bilan yozilgan:



Ammo ayrim logotiplardagi grafemalarning o'ziga xos shrift bilan yozilganligi mazkur grafemani matn maqomiga olib chiqadi. Fikr isboti uchun quyidagi rasmga qaraymiz:



Keltirilgan logotiplarda grafemalarning aynan ko'rsatilgan shakllari ularni matn maqomiga olib chiqmoqda. Aks holda mazkur grafemalar matn bo'la olmas edi. "Y" grafemasining aynan mana shu shakligina uni yoshlar telekanalining belgisi maqomiga olib chiqadi. Milliy telekanalning logotipi haqida ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin. Shu kabi ko'plab misollarni keltirish mumkin. Jumladan, "N" grafemasi oddiy bosma shrift bilan yozilganda, hech qanday ma'no ifodalamaydi. Ammo e'tiborimizni quyidagi misolgan qaratsak, butunlay boshqacha vaziyatga duch kelamiz:



Keltirilgan misoldan ko'rinish turibdiki, bu vaziyatda "N" grafemasi "Xyunday" avtokompaniyasi belgisini ifodalamoqda. Ayni paytda "N" grafemasi matn maqomiga chiqib, uning zamirida butun avtokompaniya mazmuni, o'zining ichki va tashqi jihozlari bilan, xodimlari bilan yotibdi.

2. Hajm. Garchi bitta grafema matn hajmini bermasa-da, u ifodalagan mazmun hajmi matnni shakllantirishi mumkin. Shu sababdan ham ayrim vaziyatlarda grafemalarning mazmun hajmi ularni matn sifatida tahlil qilishimizga asos bo'la oladi. Quyidagi misolda fikrimiz dalilini ko'rishimiz mumkin:



Keltirilgan grafema metroga kirish joyida joylashgan bo'lib, uning zamirida butun metropoliten (stansiyalari, yo'lovchilar, vagonlari, kassalari va h.k.lari) mazmuni joylashgan. Aynan mani shu sababdan ham biz mazkur grafemani matn maqomiga ega deya olamiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

Shunday ekan, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, savol tug'iladi: xo'sh, agar berilgan grafemalar matn sanalsa, ularning tahlili qanday bo'ladi? Avvalo shuni aytish joizki, matn maqomida kelgan grafemalarni sof lingvistik nuqtai nazardan tahlilga tortib bo'lmaydi. Bu grafemalar lingvosemiotik jihatdan tahlil qilinadi. Jumladan, ularning derivatsion tahlili ham garfemalarning semiotik tabiatini hisobga oлган holda amalga oshiriladi.

Anglash qiyin emaski, bunday makromatn turlari semantik derivatsiya tamoyillariga ko'ra shakllanadi. Bunda grafemaning o'zi operand, u ifodalagan ma'no operator, shakl va ma'no jamlanmasi esa derivat sanaladi.

Biroq shuni ta'kidlash lozimki, "M" grafemasi ifodalagan mazmun to'lig'icha operator sanalmайди. Operatorni aniqlashimiz uchun biz bu vaziyatda freym tushunchasiga murojjat qilamiz:

"M" – metro vagonlari, stansiyalar, yo'lovchilar, haydovchilar, kassa, ekskalator, metro shaxtalari, metro bekatlari va h.k..

Mazkur grafema shaklidagi matnning derivatsion tahlilini quyidagi sxemada ko'ramiz:

"M" – operand

Metropoliten (freym) – operator

Operand+operator - derivat.

Shunisi ahamiyatlikki, "M" grafemasi ifodalagan ma'nolarning qolganlari (metro vagonlari, stansiyalar, yo'lovchilar, haydovchilar, kassa, ekskalator, metro shaxtalari, metro bekatlari) virtual komponentlar sanaladi. Shunday ekan, bu komponentlarni virtual operandlar deb atashimiz mumkin.

Fikr isboti uchun e'tiborimizni "O" grafemasi ifodalangan beliga qaratamiz. Mazkur grafema ifodalangan belgi avtomashinalarga qo'yilib "O'rganuvchi", "O'quvchi" yoki "O'quv mashq avtomobili" degan ma'nolarni ifodalaydi. Semantik nuqtai nazardan derivatsion aspektida buni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

"O" – O'quvchi – Haydovchilik maktabi direktorining buyrug'i bilan o'qishga ro'yxatdan o'tgan haydovchilik maktabining talabasi.

"O" – operand;

Rulda haydovchilik maktabi direktorining buyrug'i bilan o'qishga ro'yxatdan o'tgan haydovchilik maktabining talabasi - virtual operandlar;

O'quvchi (freym) – operator;

Operand (+virtual operandlar) + operator – derivat.

Ta'kilash lozimki, matnda barcha birliklar ma'lum bir tizim sifatida bir-biriga uzviy bog'lanadi. Harf belgilari tizimida umuman til tizimiga xos bo'lgan onomimiya va antonimiyaning kategorial leksik-semantik munosabatlari kuzatiladi. Misol uchun, temir yo'l chiptalari belgilarda: C- (skoriy) tezyurar, K – kupelik, P- (passajirski, obshiy) – yo'lovchili (umumi) degan ma'nolarni anglatsa, fizika-matematika sohasida ushbu belgilarni butunlay boshqa ma'nolarni anglatadi: S- (sekunda) daqiqa, K - Kelvin; P – pi. Ammo matematika sohasidagi grafema bilan ifodalangan belgilarni matn deb bo'lmaydi, chunki bu grafemalar orqali biz faqat matematik atamalarni tushunamiz, xolos. Biroq poyezd masalasida mazkur belgilarni matn maqomida olishimiz mumkin. Zero har bir grafema orqali ko'z olimizga o'sha belgiga xos poyezdnning o'ziga xos xususiyati gavdalananadi:

TILSHUNOSLIK

1. "S" - Tezyurar poyezd - bu temir yo'llarda temir yo'l aloqasining o'ttacha tezligidan yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezd. 140 km/soat va undan yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlar yuqori tezlik deb hisoblanadi. 200 km/soat va undan yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlar eng yuqori tezlik deb nomlanadi.

2. "P" - Passajir (umumiyl) poyezdi - yo'lovchilarning o'tirishi uchun mo'ljallangan o'rindiqli (yotish uchun o'rindiqlari yo'q), yo'lovchi tashuvchi tez va tezyurar bo'lmagan temir yo'l poyezdi. Odatda u sayohati oddiy shahar atrofidagi elektr poyezd marshrutidan oshib ketadigan, ammo yarim kundan ortiq vaqtini oladigan (poyezd marshrutiga qarab) yo'lovchilarni tashish uchun ishlataladi, chunki, odatda, uzoqroq joyga sayohat qiladigan yo'lovchilar dam olish uchun yotadigan joyga muhtoj deb hisoblanadi.

3. "K" - Kupelik poyezd - bir necha yo'lovchi uchun ajratilagn alohida bo'lmali vagonlardan iborat poyezd.

Mazkur grafemalar bilan ifodalangan matnlarning semantik derivatsiya jarayonini sxemalarda quyidagicha ko'rsatishimiz mumkin.

"S" – operand.

Skorostnoy (tezyurar) operator

Operand+operator – derivat.

"P" – operand

Passajirski (passajir,yo'lovchili) – operator.

Operand+operator – derivat.

"K" – operand.

Kupe –operator

Operand+operator – derivat.

XULOSA

Bitta grafema zamirida yuqorida keltirilgan ma'nolar yotar ekan, biz uni matn maqomida olishga to'laqonli haqlimiz. Biroq shuni ham unutmasligimiz kerakki, mazkur grafemalar ishimizning oldingi sahifalarida ham aytigelidek, har doim ham matn bo'lavermaydi. Buning uchun ma'lum vaziyat talab qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Петрова Н.В. Текст и дискурс // Вопросы языкоznания, 2003, № 6. – С. 123.
2. Турниязова Ш.Н. Матн деривациясида лексик воситаларнинг ўрни// док. дис. – Фаргона, 2021. – 22-бет.
3. Смирная Ю.И. Графема: текст или сообщение // Культурная жизнь юга России. №4 - М., 2008.- С.135-136.